

SHARQ RENESSANSI DAVRIDA SHARQ MUTAFAKKIRLARINING AXLOQIY, SIYOSIY VA FALSAFIY QARASHLARI VA ULARNING YOSHLAR TARBIYASIDAGI O'RNI

Xolmirzayeva Sevara Nazirjon qizi

Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti talabasi

Telefon: 99893.424.94.99

Annotatsiya: Ushbu maqolada sharq mutafakkirlari hamda olimlarining axloqiy, siyosiy, falsafiy qarashlari va ularning yosh avlod tarbiyasidagi o'rni va ahamiyati haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Odob-axloq, kamolot, ta'lim-tarbiya, hadis, ma'naviyat, ilmiy meros.

Ona diyorumiz bo'lmish O'zbekiston zaminida bugunga qadar qanchadan-qancha nafaqat sharq sivilizatsiyasiga balki butun dunyo sivilizatsiya taraqqiyotiga o'zining ulkan hissasini qo'shgan allomoalar, olimu-ulamolar yetishib chiqqan. Ulardan bizga meros tariqasida qolgan ilmiy, ma'naviy, axloqiy va siyosiy mavzuga bag'ishlangan asarlari bugungi kunga qadar bizni ezgulik, komillik yo'lga yetaklovchi bir mayoq vazifasini bajarib kelmoqda desak mubolag'a bo'lmaydi.

Biz bugungi kunda ming afsuski ta'lim-tarbiya masalalarida ko'p o'rinlarda g'arbdan andoza olishga urinmoqdamiz. Ammo bizning bunga ehtiyojimiz bormi degan savol tug'iladi. Biz o'tmishimizga, tariximizga bir boqaylik, naqadar buyuk mutafakkirlar, allomalarning avlodlarimiz.

Bizning bugungi kundagi eng dolzarb vazifalarimizdan biri g'arbdan andoza olish emas, balki o'z tariximizni, ajdodlarimizdan qolgan oltinga teng ilmlarni o'rganmoq va ular asosida o'sib kelayotgan yosh avlodni komil inson ruhida tarbiyalamoqdir.

Bu haqda birinchi prezidentimiz I.A.Karimov "Buyuk maqsad yo'lidan og'ishmaylik" (O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining o'n ikkinchi sessiyasidagi) nutqida ta'kidlagan: "Xalqimizning tayanchi ma'naviy merosning o'zi bir katta xazina. Bu xazinadan oqilona foydalanish lozim. Ajdodlar vasiyatiga sodiq va munosib bo'lmog'imiz kerak"¹ deya ta'kidlagan edilar.

Darhaqiqat, ulardan bizga butun boshli bir ilm deb atalmish hazina qolgan. Undan oqilona foydalanish esa har birimizning burchimizdir. Tarbiya muammolari, axloqiylik, komillik kabi hususiyatlarni o'z asarlarining bosh g'oyasi qilgan mutafakkirlar ijodiga tohtalsak.

Axloqiylik, komillik, ta'lim-tarbiya haqida so'z borganda eng avvalo hadis ilmi sultoni deya ulug'langan buyuk ajdodimiz Imom Buhoriy ijodiga tohtalmaslikning iloj yo'q. U kishi tomonidan yozilgan asarlar 20 dan ortiqni tashkil etib, butun dunyoda e'tirof etilgan. Yana shunday asari borki u Qur'oni Karimdan so'ng ikkinchi o'rinda turuvchi "Al-jome as-sahih" asaridir.

¹ Каримов И.А. "Буюк мақсад йўлидан оғишмайлик" Ўзб.Рес. Олий Кенгаши XII сессиясидаги нутқи 1993 й.

Imom Buhoriy axloq-odob haqida fikr yuritib insonlarni to'g'ri so'zlikka ota-onani qadrlashga, ular oldidagi farzandlik burchlarini og'ishmay bajarishga chorlaydi.

Insoniylik sifatleri haqidagi qarashlarida jaholatni kishiga o'lim keltiruvchi buyuk bir fojea sifatida ta'riflaydi. U odamlarni to'g'ri so'zlikka, o'z vadasiga vafo qilishga undaydi. Munofiq kishining uchta belgisini ko'rsatadi, ular: yolg'on gapirish, va'daga vafo qilmaslik va omonatga xiyonat qilishdan iboratligini aytadi. U insonning kuch-qudratini jismonan paxlavonlikda emas, balki jahil chiqqanda o'zini tuta olishda, deb hisoblaydi.

Imom Buxoriy hadislaridan: Insonlarga yomonlik qilishdan uzoqroq tur. Zero bu o'zinga sadaqadir. Ya'ni boshqalarga foydasi tegadigan odam eng yaxshi odamdir. Islom insonning manman, xudbin bo'lib, faqat o'z manfaatini o'ylab ish tutishni ma'qul ko'rmaydi. Alloh boshqalar uchun fidoyi, samimiy va hojatbaror bandalarni qadrlaydi².

Yuqoridagi kabi Imom Buhoriyning asarlari insonni oilani, ota-onani qadrlashga, to'g'ri so'zlikka, fidoiylik va samimiylikka chorlovchi fikrlar va qarashlar asosiga qurilgandir.

Muhammad ibn Iso at-Termiziyning bizga qadar 10 ga yqin asar yozib qoldirganligi ma'lum. Uning asarlari ichida "Al-jome' as-sahih" ("Ishonchli to'plam"), "Ash-shamoil annabaviya" ("Payg'ambarning alohida fazilatleri"), "Al-ilal fi-l-hadiys" ("Hadislardagi illatlar va og'ishlar haqida") kabilar shoh asarlar hisoblanadi. Muhammad ibn Iso at-Termiziy tomonidan yozib qoldirilgan asarlarda ham huddi Imom Buhoriyning asarlarida bo'lgani singari insoniylik, halollik, to'g'ri so'zlik, rahm-shafqatlilik, ota-onani qadrlash, e'tiqod, diyonat, poklik kabi qarashlar bosh g'oya hisoblanadi.

Qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy ilm oluvchi insonlarga qalbni yomon illatlardan, inson o'zi seza olmaydigan holatlardan, hirsdan, ochko'zlik shon-shuhratga berilish kabi chirkin illatlardan asrashini uqtiradi.

Beruniy inson kamolatida uch narsa muhimligini ta'kidlaydi. Bu hozirgi ma'rifat, ilm-fanni ham e'tirof qiluvchi – irsiyat, ijtimoiy muhit va to'g'ri tarbiyadir.

Beruniy ko'p bilim va yuksak axloqqa ega bo'lish komil inson bo'lib yetishishdagi eng muhim masalalardan deb qaraydi. Beruniy kamolotga erishishning bosh mezoni sanalgan bilimga ega bo'lish yo'lida kishini hech qanday mushkulotdan qochmaslikka, qo'rqmaslikka da'vat etadi.

"Ey birodarlar: Odamlarning botiri mushkilotdan qo'rqmaydi. Kamolot hosil qilishdan bosh tortgan kishi odamlarning eng qo'rqog'idir"³. Zero bilimli kishi jasur, o'limdan ham qo'rqmaydigan, faqat haqiqatni bilish uchun harakat qiladigan bo'ladi, deydi u fikrini davom ettirib.

Xulosa qilib aytganda yosh avlod ta'lim-tarbiyasida hadislardan, sharq mutafakkirlarining ilmiy meroslaridan foydalanish, ularni aqlan, axloqan yetuk, imonli, vijdonli qilib tarbiyalovchi, ularning ma'naviyatini yuksak cho'qqiga olib chiquvchi bir vosita vazifasini o'taydi deya ayta olamiz. Insondagi ezgu fazilatlar kamol topib, ildiz otishida o'ziga xos omil bo'la oladi. Hadisshunos olimlarning axloqiy, ma'naviy, siyosiy qarashlari bugunga qadar ajdodlarimiz tafakkurini boyitib kelmoqda. Shunga ko'ra mutafakkirlarning o'lmas

² 1001 mavzuda 1001 hadis (Sharh va ilovalari bilan). O'zbekiston, NMIU, 2020-yil.

³ Абу Райхон Беруний. "Танланган асарлар" 1 том Тошкент Фан 1968 й 151-б

merosi oilada, ta'lim tarbiya jarayonida yoshlarning axloqiy, ma'naviy tarbiyalashning eng muhim omili hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Каримов И.А. “Буюк мақсад йўлидан оғишмайлик” Ўзб.Рес. Олий Кенгаши XII сессиясидаги нутқи 1993 й.
2. 1001 mavzuda 1001 hadis (Sharh va ilovalari bilan). O‘zbekiston, NMIU, 2020-yil.
3. Абу Райхон Беруний. “Танланган асарлар” 1 том Тошкент Фан 1968 й 151-б.